

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHUV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Karimov Bobir,

О‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Siyosiy fanlar”
kafedrası professor v.b., sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

e-mail: bkarimov73@umail.uz

YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064253>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq sotsiologik xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, ijtimoiy muhit, ta‘lim tizimi, tashkilot madaniyati hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining mazkur kompetensiyalarga ta‘siri kompleks tarzda o‘rganilgan. Yosh rahbarlarda mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion yondashuv va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ta‘sir etuvchi asosiy omillar ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv sharoitida kreativ va tanqidiy fikrlashning samaradorlikka ta‘siri ilmiy asoslangan. Maqolada ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy yondashuvlar va tavsiyalar ham keltirilgan. Natijada, yosh rahbarlarning intellektual salohiyatini oshirish orqali tashkilotlar samaradorligini yuksaltirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, yosh rahbar, liderlik, kompetensiya, ijtimoiy muhit, ta‘lim tizimi, tashkilot madaniyati, raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuv.

Каримов Бобир,

и.о. профессора кафедры «Политические науки»
Узбекского государственного университета мировых языков,
доктор социологических наук (DSc)

e-mail: bkarimov73@umail.uz

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ КРЕАТИВНОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МОЛОДЫХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы социологические особенности развития компетенций креативного и критического мышления у молодых руководителей в контексте современных социальных процессов. В частности, комплексно изучено влияние социальной среды, системы образования, организационной культуры, а также процессов цифровой трансформации на данные компетенции. Раскрыты основные факторы, влияющие на формирование у молодых руководителей навыков самостоятельного принятия решений, инновационного подхода и аналитического мышления. Также научно обосновано влияние креативного и критического мышления на эффективность в условиях современного

управления. В статье представлены практические подходы и рекомендации, направленные на развитие данных компетенций. В результате обоснованы возможности повышения эффективности организаций за счёт развития интеллектуального потенциала молодых руководителей.

Ключевые слова: креативное мышление, критическое мышление, молодой руководитель, лидерство, компетенция, социальная среда, система образования, организационная культура, цифровая трансформация, инновационный подход.

Karimov Bobir,

Acting Professor of the Department of Political Science

Uzbekistan State World Languages University,

Doctor of Sociological Sciences (DSc)

e-mail: bkarimov73@umail.uz

SOCIOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE AND CRITICAL THINKING COMPETENCIES IN YOUNG LEADERS

ABSTRACT

This article analyzes the sociological features of developing creative and critical thinking competencies in young leaders within the context of modern social processes. In particular, the influence of the social environment, education system, organizational culture, and digital transformation processes on these competencies is comprehensively examined. The key factors affecting the formation of independent decision-making, innovative approaches, and analytical thinking skills among young leaders are identified. Additionally, the impact of creative and critical thinking on effectiveness in modern management conditions is scientifically substantiated. The article also presents practical approaches and recommendations aimed at developing these competencies. As a result, the opportunities to enhance organizational efficiency through strengthening the intellectual potential of young leaders are justified.

Keywords: creative thinking, critical thinking, young leader, leadership, competency, social environment, education system, organizational culture, digital transformation, innovative approach.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida rahbarlik faoliyati mazmun jihatidan yangilanmoqda. Zamonaviy rahbardan nafaqat boshqaruv ko'nikmalari, balki kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari ham talab etilmoqda. Ayniqsa, yosh rahbarlarda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ijtimoiy fanlarda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Mazkur tadqiqotning maqsadi yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning sotsiologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

METODOLOGIYA

Kreativ va tanqidiy fikrlash masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, R.Florida kreativ sinf nazariyasi orqali innovatsion iqtisodiyotda ijodkorlikning rolini asoslab bergan. E.de Bono tanqidiy fikrlash va "lateral fikrlash" konsepsiyasini ishlab chiqqan. Tanqidiy fikrlashga oid qarashlar: Resnik: «O'quvchilar o'z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tadbiriq eta olsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi» (1987) Ros: «O'quvchilarning oldin egallagan bilimlariga va tajribalariga asoslangan o'qish mustahkam bo'ladi. Bularning hammasi o'quvchiga yangi axborotni bilganlari bilan bog'lash imkoniyatini beradi» (1990) Benks: «O'qituvchilar g'oyalar va tajribalarning turli-tumanligini to'g'ri tushunchalargina tanqidiy fikrlash va o'qish yaxshi natija beradi. Agar «yagona bitta javob ruhi» ustuvorlik qilsa, unda tanqidiy fikrlashga imkon bo'lmaydi (1988), J.Dyui tanqidiy fikrlashni tajribaga asoslangan bilish jarayoni sifatida ta'riflagan.

Shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlaridan ham rahbarlarda tanqidiy fikrlashga oid ko'plab yondashuvlarni ko'rish mumkin. Mahalliy tadqiqotlarda esa liderlik kompetensiyalari,

ijtimoiy kapital va ta'lim tizimi orqali shaxs rivojlanishi masalalari yoritilgan, ammo yosh rahbarlarda aynan kreativ va tanqidiy fikrlashning sotsiologik tahlili yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Turli sohalarida faoliyat yuritayotgan yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining shakllanish jarayoni o'rganildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlil, so'rov, intervyu usullaridan foydalanildi.

Prezident Sh.Mirziyoyev "Bizning maqsadimiz – Yangi O'zbekistonning maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib shakllanishi zarur" [1], deb ta'kidlagan edi.

ASOSIY QISM

Kreativ fikrlash bu insonning muammolarga odatiy yo'ldan tashqari, yangicha va original yechimlar topa olish qobiliyati hisoblanadi. Bunda inson mavjud bilim va tajribalardan foydalanib, yangi g'oyalar, g'oyat noodatiy qarashlar va innovatsion yechimlar yaratadi. Kreativ fikrlash jarayonida shaxs standart qoliplardan chiqib, turli imkoniyatlarni ko'rib chiqadi va muammoga bir nechta alternativ yechimlar taklif qiladi. tanqidiy fikrlash esa bevosita muammoni hal qilish uchun ma'lumotlardan aniq va oqilona foydalana olish, qo'shimcha ma'lumotlar topish ko'nikmasi bo'lib, narsa va hodisalarni tahlil qilib asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar sistemasi bo'lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega.

Kreativ ingliz tilida "*creative*", ya'ni ijod, ijodiy lotin tilida "*creatio*" – yaratish, bunyod etish ma'nolarini anglatadi. Ilk bor kreativlik tushunchasi R.M.Simpson tomonidan 1922-yilda insonning qolipli fikrlash usulidan voz kechish xususiyatini ifodalash uchun qo'llanilgan [2]. Darhaqiqat, agar inson doimo cheklovlar va chegaralarga e'tibor qarataversa, kreativ bo'lishi qiyin. Shu sababdan nostandart fikrlash - mavjud qoliplar va masalani hal qilishning odatdagi usullarining chegarasidan tashqarisiga chiqish "*thinking outside the box*" – so'zma-so'z "qutidan tashqarida fikrlash", deb ataladi.

Kreativlik ko'rsatkichlari:

– moslashuvchanlik – turli nuqtai-nazarlar va yondashuvlar o'rtasida erkin o'ta olish qobiliyatidir. Inson bir muammoni turli semantik maydonlarda ko'rib, yangi yechimlar kombinatsiyasini yarata oladi;

– o'ziga xoslik – odatiy qoliplardan chiqib, original va kutilmagan g'oyalarni ilgari surishni anglatadi. Bunday fikrlash yangilik kiritish va innovatsion qarorlar topishga xizmat qiladi;

– tafsilotlarni qo'shish – mavjud g'oya yoki obyektни chuqurlashtirib, uni yanada mukammal qilish qobiliyatidir. Bu jarayonda kichik detallarga e'tibor qaratilib, umumiy natija sifat jihatdan yaxshilanadi;

– analiz va sintez qobiliyati – muammoni qismlarga ajratib tahlil qilish va ularni qayta birlashtirib yaxlit yechim topishni anglatadi. Bu ko'nikma murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga yordam beradi;

– mulohaza yuritish – muammoni to'g'ri aniqlash, uni shakllantirish va dolzarb savol qo'ya bilish qobiliyatidir. Aniq qo'yilgan muammo yechim topish jarayonini ancha osonlashtiradi;

– fikr tezligi – qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalarni ilgari surish qobiliyati hisoblanadi. Bu ko'nikma ijodiy jarayonda variantlar ko'pligini ta'minlab, eng maqbul yechimni tanlash imkonini beradi.

Kreativlik to'siqlari – bu shaxsning yangi g'oyalar yaratishiga xalaqit beradigan psixologik va ijtimoiy omillardir; ularga qo'rquv, xatodan qochish, stereotip fikrlash va tashqi bosimlar kiradi. Bu to'siqlar innovatsion fikrlashni cheklab, rahbarlarda noan'anaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatini pasaytiradi (1-chizma).

Kreativlik to'siqlari



1-chizma. Kreativlik to'siqlari

Dayana Xalperi «Tanqidiy fikrlash psixologiyasi» kitobida tanqidiy fikrlash «fikir yuritishning shunday ko'rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi», [3] deb yozadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari



2-chizma. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish» (O'YoTF) loyihasida quyidagicha ta'kidlanadi: «Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu

g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi» [5].

Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon ham bo'lib hisoblanadi (2-chizma).

Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtainazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda taxlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Yosh rahbarlar o'zlarida tanqidiy fikrlashni vujudga keltirishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak:

– O'ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish – ijodiy va mustaqil fikrlashning asosidir. Rahbar boshqalarning fikrini shunchaki qabul qilmay, mustaqil tahlil asosida o'z qarashini shakllantirishi zarur.

– Bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati – qaror qabul qilish jarayonida xatoliklarni kamaytiradi. Turli variantlarni solishtirib, qaysi biri samaraliroq ekanini dalillar bilan ko'rsatish muhim.

– Murakkab muammolarni yechish mahorati – tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Muammolarni qismlarga ajratib, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash orqali yechim topish talab etiladi.

– Bahsni dalillab olib borish – muloqot madaniyati va ishonchlilikni oshiradi. Fikrni emotsiyaga emas, aniq fakt va dalillarga tayangan holda himoya qilish zarur.

– Yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati – hamkorlik va liderlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Jamoa ichida turli qarashlarni uyg'unlashtirib, umumiy qarorga kelish muhim.

– Qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta'sir qilishini tushunish – boshqalarni to'g'ri tushunish va empatiyani rivojlantirishga yordam beradi. Har bir insonning fikri uning tajribasi bilan shakllanishini anglash muhim.

Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda taxlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi. Tanqidiy fikrlash muloqat va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy globallashtirish va raqamlashuv sharoitida rahbarlik faoliyati sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, yosh rahbarlardan faqat ma'muriy boshqaruv emas, balki kreativ yondashuv va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati ham talab etilmoqda. Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, mazkur kompetensiyalar shaxsning ijtimoiy muhiti, ta'lim tizimi va institutsional omillar ta'sirida shakllanadi [6].

Kreativ fikrlash – bu yangi g'oyalar ishlab chiqish, noan'anaviy yechimlar topish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash esa axborotni tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish jarayonini anglatadi. Bu ikki kompetensiya o'zaro bog'liq bo'lib, samarali boshqaruvning asosiy elementi hisoblanadi [7].

Sotsiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, yosh rahbarlarda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim muassasalari, korporativ madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o'ynaydi. Xususan, interaktiv ta'lim usullari, keys-stadi, muammoli ta'lim va timbiding mashg'ulotlari orqali kreativ va tanqidiy fikrlash samarali shakllantiriladi [6; 8].

Bundan tashqari, institutsional muhit – tashkilotlardagi ochiqlik, innovatsiyaga bo'lgan munosabat va rahbarlik uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Demokratik boshqaruv uslubi va erkin fikr bildirish imkoniyati mavjud bo'lgan muhitda yosh rahbarlar o'z intellektual salohiyatini to'liq namoyon eta oladi [9]. Shuningdek, inson qaror qabul qilish jarayonida kognitiv omillar ham muhim bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish tanqidiy fikrlashni yanada rivojlantiradi [10].

Xulosa qilib aytganda, yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish kompleks ijtimoiy jarayon bo'lib, u ta'lim, madaniyat va institutsional omillarning o'zaro ta'sirida shakllanadi. Ushbu kompetensiyalar jamiyatda innovatsion taraqqiyot va samarali boshqaruvni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

<p>Yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish quyidagi sotsiologik omillar bilan belgilanadi:</p>	<p>Birinchi, ijtimoiy muhit va tashkilot madaniyati. Ochiq muloqot va fikr almashinuvi mavjud bo'lgan jamoalarda tanqidiy fikrlash yuqori darajada shakllanadi.</p>
	<p>Ikkinchi, ta'lim tizimi. Interaktiv va innovatsion o'qitish metodlari (keys-metod, debatlar, muammoli ta'lim) yoshlarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.</p>
	<p>Uchinchi, ijtimoiy kapital. Keng ijtimoiy tarmoqlarga ega bo'lgan yosh rahbarlar ko'proq kreativ g'oyalar ishlab chiqaradi.</p>
	<p>To'rtinchi, raqamli muhit ta'siri. Axborot oqimining ortishi tanqidiy saralash qobiliyatini talab qiladi, shu bilan birga kreativ ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.</p>
	<p>Beshinchi, liderlik uslubi. Demokratik va transformatsiyatsion liderlik kreativ fikrlashni rag'batlantiradi, avtoritar uslub esa cheklaydi.</p>

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalari individual xususiyat emas, balki ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu bois, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli yondashuv talab etiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Endi ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari o'zaro uyg'unlashadi. Buning uchun bog'cha bolalarini matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo'nalishlarida tanqidiy va kreativ fikrlashga o'rgatadigan dasturlar ishlab chiqiladi» [2], deb ta'kidlagan edi.

Yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish, avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhiti bilan chambarchas bog'liq. Ochiq axborot makoni, ta'lim tizimining innovatsionligi va fikrlar xilma-xilligiga bo'lgan munosabat yoshlarda mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Agar jamiyatda erkin mulohaza va tanqidiy yondashuv qadrlansa, bunday muhitda shakllangan rahbarlar yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni asoslashga moyil bo'ladi.

Shuningdek, institutsional omillar sifatida ta'lim muassasalari, tashkilotlar va boshqaruv tizimidagi munosabatlar ham muhim rol o'ynaydi. Demokratik boshqaruv uslubi, jamoaviy qaror qabul qilish amaliyoti va ochiq muloqot madaniyati yosh rahbarlarda tahliliy fikrlash, bahs yuritish va konsensusga erishish ko'nikmalarini shakllantiradi. Aksincha, avtoritar muhitda tashabbuskorlik va kreativlik cheklanib, tanqidiy fikrlash susayishi mumkin.

Ijtimoiy tajriba va shaxsiy ijtimoiylashuv jarayonlari ham ushbu kompetensiyalarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila, tengdoshlar guruhi va kasbiy faoliyat davomida orttirilgan tajriba insonning dunyoqarashi va fikrlash uslubini belgilaydi. Turli ijtimoiy rollarda faol ishtirok etish, muammoli vaziyatlarga duch kelish va ularni hal qilish orqali yosh rahbarlarda kreativlik va tanqidiy yondashuv tabiiy ravishda rivojlanadi.

XULOSA

Yosh rahbarlarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonlarida amaliy keyslar, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlarni keng joriy etish zarur. Bu usullar nazariy bilimlarni real qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'lashga xizmat qiladi. Bu yosh rahbarlarda mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuv shakllanishiga imkon beradi.

Ijtimoiy muhit va tashkilot madaniyati kreativ fikrlash rivojida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ochiq muloqot, fikrlar xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash va xatolarga nisbatan tolerant munosabat yosh rahbarlarning tashabbuskorligini oshiradi. Bu esa jamoada innovatsion muhit yaratishga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda tahlil, solishtirish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Buning uchun maxsus treninglar, debatlar va analitik mashg'ulotlar samarali hisoblanadi. Natijada yosh rahbarlar axborotni tanlab qabul qilishga o'rganadi.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Onlayn platformalar, ma'lumotlar tahlili vositalari va raqamli ta'lim resurslari rahbarlarning intellektual salohiyatini kengaytiradi.

Mentorlik va kouching tizimini joriy etish yosh rahbarlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini tezlashtiradi. Tajribali rahbarlar bilan muloqot orqali ular amaliy bilim va strategik fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

Kreativ va tanqidiy fikrlashni baholash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Aniq indikatorlar va mezonlar asosida baholash rahbarlarning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Yosh rahbarlarda motivatsiya va ichki rag'batni kuchaytirish kreativlikning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ragbatlantirish mexanizmlari, karer o'sish imkoniyatlari va e'tirof tizimi ularni yangi g'oyalar yaratishga undaydi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Mirziyoyev Sh.M. 7-tom. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. M 54. – Toshkent: “Ozbekiston” nashriyoti, 2023. – B.111.
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta'limidagi islohotlarning yangi bosqichi. 2025 yil 15-may. <https://president.uz/uz/lists/view/8127>
3. George Simpson. Creativity and Critical Thinking. – New York, 1975.
4. Xalperi D. Tanqidiy fikrlash psixologiyasi. – M. 1992.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. OECD. Skills for Innovation and Research. – Paris, 2021.
7. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
8. Richard Paul, Linda Elder. Critical Thinking. – 2014.
9. Richard Florida. The Rise of the Creative Class. – 2002.
10. Daniel Kahneman. Thinking, Fast and Slow. – 2011.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000